



# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIIY-AMALIY JURNALI

1 / 2022



## TAHRIR HAY'ATI:

### **N. SALAYEV**

Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor – bosh muharrir

### **I. ERGASHEV**

Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent – bosh muharrir o'rinbosari

### **U. MUXAMEDOV**

Toshkent shahar adliya boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari – Toshkent shahar yuridik texnikumi direktori, yuridik fanlar doktori, professor

### **S. GULYAMOV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Xalqaro xususiy huquq" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

### **O. OKYULOV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik huquqi" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

### **M. AXMEDSHAYEVA**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Davlat va huquq nazariyasi" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

### **U. TUXTASHEVA**

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori o'rinbosari, yuridik fanlar doktori, professor

### **SH. SAYDULLAYEV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ommaviy huquq" fakulteti dekani, yuridik fanlar nomzodi, professor

### **X. XAYITOV**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi "Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori

### **SH. XO'JAYEV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Intellektual mulk" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

### **D. XABIBULLAYEV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar nomzodi, professor

### **SH. ISMOILOV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Mehnat huquqi" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar doktori

### **G. TULAGANOVA**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat-protsessual huquqi" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

### **N. RAXMONKULOVA**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti "Xalqaro xususiy huquq va fuqarolik huquqi fanlari" kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar doktori

### **J. NEMATOV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ma'muriy va moliya huquqi" kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

### **G. UZAKOVA**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Ekologiya huquqi" kafedrasida mudiri, yuridik fanlar nomzodi, dotsent

### **A. MUXAMEDJANOV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Xalqaro huquq va inson huquqlari" kafedrasida professori, yuridik fanlar doktori

### **R. KUCHKAROV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Umumta'lim fanlar va madaniyat" kafedrasida dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi

### **SH. XAYDAROV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish" kafedrasida dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

### **SH. ASADOV**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi "Davlat tuzilishi va boshqaruvining huquqiy asoslari" kafedrasida professori v.b., yuridik fanlar doktori

### **D. XUDOYNAZAROV**

Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi" kafedrasida o'qituvchisi – mas'ul muharrir

#### **MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

"Yurisprudensiya" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali

"Юриспруденция" правовой научно-практический журнал

"Jurisprudence" legal scientific-practical journal

"Yurisprudensiya" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

ISSN 2181-1938

© Toshkent davlat yuridik universiteti

# MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ  
NAZARIYASI VA TARIXI.  
HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- 6 YUNUSOV HAYDARALI MURATOVICH**  
Saraxsiy – islom uyg'onish davrining  
yirik huquqshunosi

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY  
HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ.  
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 15 NE'MATOV JO'RABEK NE'MATILLOYEVICH**  
O'zbekistonda ma'muriy odil sudlov  
muammolari va ma'muriy sudlar faoliyati  
samaradorligini oshirish imkoniyatlari

- 30 SUVANOV SARDOR BAXADIROVICH**  
Taraqqiyot strategiyasida belgilangan  
sud-huquq sohasiga oid maqsadlarni amalga  
oshirishning ilmiy-nazariy asoslari

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.  
TADBIRKORLIK HUQUQI.  
OILA HUQUQI.  
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 38 YAKUBOVA IRODA BAHRAMOVNA**  
Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni  
"kengaytirilgan jamoaviy boshqaruv" asosida  
amalga oshirish

- 49 SAIDOV MAQSUDBEK NORBOYEVICH**  
Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ustav  
jamg'armasidagi qarzdor ulushini  
majburlashning o'ziga xos xususiyatlari

- 65 XALILOVA ZEBINISO ERKINOVNA**  
Xalqaro investitsiya huquqiy rejimida davlat  
korxonalarining roli

12.00.04 – FUQAROLIK  
PROTSESSUAL HUQUQI.  
XO‘JALIK PROTSESSUAL HUQUQI.  
HAKAMLIK JARAYONI VA  
MEDIATSIYA

- 75 ESANOVA ZAMIRA NORMUROTOVNA**  
Fuqaroning layoqati (huquq va muomala) bilan bog‘liq ishlar: nazariy tahlil va amaliy natijalar
- 84 HAQBERDIYEV ABDUMUROD  
ABDUSAIDOVICH**  
Hakamlik sudining tuzilishida hakamlik bitimi
- 95 DAVRONOV DONIYORBЕК ABDULLO O‘G‘LI**  
Xorij mamlakatlarida fuqarolik protsessual majburlov choralari

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR  
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.  
EKOLOGIK HUQUQ

- 105 MAHKAMOV DURBEK NE‘MATOVICH**  
O‘simlik dunyosiga oid qonunchilikda ekologik va mulkiy munosabatlar tahlili

12.00.07 – SUD HOKIMIYATI.  
PROKUROR NAZORATI.  
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH  
FAOLIYATINI TASHKIL ETISH.  
ADVOKATURA

- 114 IBRAGIMOV DIYORBЕК SHUHRAT O‘G‘LI**  
Voyaga yetmaganlar sohasida qonuniylikni ta‘minlashda prokuror nazorati va idoraviy nazorat o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni takomillashtirish masalalari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI,  
HUQUQBUZARLIKLARNING  
OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA.  
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 123 ФАЗИЛОВ ФАРХОД МАРАТОВИЧ**  
Вопросы анализа социально-правовых факторов легализации преступных доходов

**134 ISLOMOV BUNĒD OCHIOVICH**

Обстоятельства, смягчающие наказание и исключают преступность деяния по уголовному законодательству Французской Республики (сравнительный анализ)

**149 BOYDEDAYEV SADIRDIN  
ABDUSATTOROVICH**

Korrupsiya tushunchasi: tahlil va taklif

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.  
KRIMINALISTIKA,  
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA  
SUD EKSPERTIZASI

**156 БАЗАРОВА ДИЛДОРА БАХАДИРОВНА**

Ограничение права на молчание  
в уголовном судопроизводстве:  
опыт Австралии

**165 UTEPOV DAUREN PAKHATOVICH  
ZHEMPIISOV NAZARBEEK SHARUNOVICH**

Legal basis for collection and attachment of  
digital information as proof in criminal cases in  
Republic of Kazakhstan

**175 URALOV SARBON SARDOROVICH**

Sud muhokamasida isbot qilish predmeti  
sifatida preyditsiyadan foydalanish masalalari

UDC: 343.1(045)(575.1)

## SUD MUHOKAMASIDA ISBOT QILISH PREDMETI SIFATIDA PREYUDITSIYADAN FOYDALANISH MASALALARI

**Uralov Sarbon Sardorovich,**

Toshkent davlat yuridik universiteti,

“Jinoyat-protsessual huquqi” kafedrası o‘qituvchisi

e-mail: s.uralov@tsul.uz

ORCID: 0000-0002-3251-2591

**Annotatsiya.** Maqolaning dolzarbligi shundaki, jinoyat protsessida preyuditsiya instituti jinoyat ishini yuritishga mas’ul bo‘lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatidagi ziddiyatlarni bartaraf etish, ko‘plab xarajat va kuch talab etadigan preyuditsial vaziyatlarni oson hal etish imkonini yaratadi. Maqolaning maqsadi tahlillar asosida jinoyat-protsessual huquqida preyuditsiya institutini tatbiq etish bilan bog‘liq muammolar yechimi bo‘yicha nazariy qoidalar yaratishdir. Ko‘zlangan maqsad esa jinoyat protsessida preyuditsiya institutini qo‘llash bilan bog‘liq milliy qonunchilikni takomillashtirish istiqbollari aniqlash hamda ushbu institutni huquqiy asoslovchi ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Natijalarning ilmiy jihatdan yangiligi – jinoyat-protsessual huquqida preyuditsiya institutini qo‘llashga oid huquqiy ko‘rsatmalarni takomillashtirishning nazariy, huquqiy va amaliy masalalarini jinoyat-protsessual huquqi fani nuqtai nazaridan tadqiq etishdir. Tadqiqot davomida olingan xulosalardan jinoyat-protsessual islohotlarning alohida yo‘nalishi sifatida preyuditsiya institutini rivojlantirish, qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar tayyorlash, jinoyat-protsessual huquqi fani bo‘yicha ma‘ruzalar hamda maxsus kurslar o‘qishda foydalanish mumkin. Bunda qonun chiqaruvchi jinoyat-protsessual faoliyatning xususiyati, yo‘nalishi, mazmunini qonun yo‘li bilan maxsus qoidalar yordamida belgilab berishi to‘g‘risidagi fikrlar keltirilgan. Yuqori sud instansiyalari tomonidan dalillarning preyuditsial ahamiyati va ularni tan olish mexanizmlari xususida turlicha qarashlar polemika shaklida keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** ayblov, himoya, odil sudlov, preyuditsiya, hukm, sud qarorlarining majburiyligi, jinoyat ishi, hukm ijrosi, hukmlarni tan olish, sud tergov.

### ВОПРОСЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРЕЮДИЦИИ КАК ПРЕДМЕТА ПРЕДСТАВЛЕНИЯ В СУДЕ

**Уралов Сарбон Сардорович,**

преподаватель кафедры

«Уголовно-процессуальное право»

Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** Актуальность статьи заключается в том, что в уголовном процессе институт преюдиции позволяет разрешать конфликтные ситуации в деятельности государственных органов и должностных лиц, осуществляющих уголовное судопроизводство, легко разрешать досудебные ситуации, требующие больших средств и усилий. Целью данной статьи является разработка теоретических направлений решения проблем, связанных с

применением института преюдиции в уголовно-процессуальном праве на основе анализа, чтобы определить перспективы совершенствования национального законодательства по применению института преюдиции в уголовном судопроизводстве, а также подготовить правовые предложения и рекомендации. Уровень научной новизны результатов заключается в изучении теоретических, правовых и практических вопросов с точки зрения науки уголовно-процессуального права по совершенствованию правовых ориентиров применения института преюдиции в уголовно-процессуальном праве. Выводы статьи могут быть использованы как отдельное направление уголовно-процессуальной реформы при развитии института преюдиции, подготовке предложений и рекомендаций по совершенствованию законодательства, лекций и спецкурсов по уголовно-процессуальному праву. В них предусмотрено, что законодательная власть определяет характер, направление и содержание уголовного судопроизводства по специальным правилам. Различные взгляды на предвзятое значение доказательств и механизмы их признания оспаривались вышестоящими судами.

**Ключевые слова:** обвинение, защита, правосудие, предубеждение, приговор, обязательность судебных решений, уголовное дело, исполнение приговора, признание приговоров, судебное расследование.

## ISSUES OF THE USE OF PREJUDICE AS THE SUBJECT OF PROVISION IN THE COURT

**Uralov Sarbon Sardorovich,**

Lecturer of the Department of Criminal Procedural Law of  
Tashkent State University of Law

**Abstract.** *The relevance of the article lies in the fact that in the criminal process the institution of prejudice allows you to resolve conflict situations in the activities of state bodies and officials involved in criminal proceedings, easily resolve pre-trial situations that require a lot of money and effort. The purpose of this article is to develop theoretical directions for solving problems related to the use of the institution of prejudice in criminal procedure law based on analysis. The goal is to determine the prospects for improving national legislation related to the use of the institute of prejudice in criminal proceedings, as well as to prepare legal proposals and recommendations from the institute. The level of scientific novelty of the results lies in the study of theoretical, legal and practical issues from the point of view of the science of criminal procedure law to improve the legal guidelines for the application of the institute of prejudice in criminal procedure law. The conclusions of the article can be used as a separate area of criminal procedure reform in the development of the institution of prejudice, the preparation of proposals and recommendations for improving legislation, lectures and special courses on criminal procedure law. It provides that the legislation determines the nature, direction and content of criminal proceedings according to special rules. Various views on the biased value of evidence and the mechanisms for its recognition have been challenged by higher courts.*

**Keywords:** *accusation, defense, justice, prejudice, sentence, binding judgments, criminal case, execution of a sentence, recognition of sentences, judicial investigation.*

### Kirish

Dunyodagi barcha rivojlangan demokratik davlatlarda shaxs va fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning bosh omili adolatli sudlar hisoblanadi. Sud organlarining faoliyati inson huquqlari va erkinligini himoya qilish, ij-

timoiy adolat, tenglik va totuvlikni ta'minlash, huquqiy qonuniylikni barcha choralar bilan mustahkamlashga qaratilgandir. Bugungi kunga kelib, sud hokimiyati davlat hokimiyatining mustaqil hokimiyat tarmog'i sifatida to'la-to'kis shakllandi hamda shaxs huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlari-

ning chinakam, tom ma'nodagi himoyachisiga aylandi. Mohiyat e'tiboriga ko'ra, sud hokimiyati davlat va jamiyat hayotida tartibga soluvchi funktsiya vazifasini bajaradi.

Bu borada, ayniqsa, mustaqil respublikamizning xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplarini o'zida aks ettirgan, insonparvarlik va odillik g'oyalari bilan yo'g'rilgan, inson huquqlarini oliy qadriyat sifatida e'tirof etgan hamda huquqiy davlat barpo etish yo'lida mustahkam huquqiy zamin bo'lib xizmat qilgan Konstitutsiyamizning o'rni alohida ahamiyatga molik. Asosiy Qomusimizning qabul qilinishi bilan O'zbekistonda hokimiyatlar taqsimlanishi prinsipiga asoslangan holda, sud hokimiyati alohida hokimiyat tarmog'i sifatida tan olindi va uning amalda chinakam mustaqilligi va xolisligini ta'minlash sud-huquq islohotlarining ustuvor yo'nalishi etib belgilandi.

Jinoyat protsessida preyuditsiya instituti jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatidagi ziddiyatlarni bartaraf etishi; jinoyat ishini vakolatli shaxs tomonidan yanada malakali ko'rib chiqish va hal etish uchun sharoit yaratishi; jinoyat ishini yuritishda ko'plab xarajat va kuch talab etadigan preyuditsial vaziyatlarni oson hal etish imkonini berishi; yuridik kuchga ega bo'lgan oldingi sud qarorlari izsiz yo'qolishining oldini olishi va pirovardida muayyan holatlar yuzasidan maqbul yechim topilishiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

### **Material va metodlar**

Mazkur tadqiqot ishi dastavval jinoyat-protsessual qonunchiligida tadqiqot ishi sifatida ilmiy izlanishlar olib borilmaganligi sababli kuzatish, umumlashtirish, aksiomatik va qiyosiy metodlar orqali amalga oshirildi. Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu ilmiy izlanish davomida qiyosiy-huquqiy tahlil metodidan keng foydalanilgan.

Preyuditsiallik sud qarori qonuniy kuchining xususiyati bo'lib, tashqi tomondan boshqa qarorlar bilan o'zaro munosabatini tavsiflaydi [1, 45-b.]. Bunda quyidagi maq-

sadlar ko'zlanadi: 1) odil sudlov organlari qarorlarining umummajburiyligiga rioya etish; 2) odil sudlov organlari hujjatlarining ijtimoiy qadr-qimmatini saqlab qolish; 3) odil sudlov organlari nufuziga amal qilish; 4) odil sudlov organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlar nufuziga amal qilish; 5) odil sudlov organlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning huquqiy vorisiyiligiga rioya etish; 6) jinoyat ishi bo'yicha isbot qilish jarayonini tezlashtirish [2, 138-b.].

### **Tadqiqot natijalari**

Tadqiqotning natijalari belgilangan maqsadni amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- jinoyat protsessida sud hujjatlarining majburiyligi xususiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilish;

- jinoyat-protsessual huquqida preyuditsiya tushunchasi va ushbu institutning rivojlanish tarixini o'rganish;

- qonuniy kuchga kirgan sud qarorlarining preyuditsial ahamiyatini aniqlash;

- sud protsessida preyuditsiyani qo'llash chegaralarini o'rganish;

- sud muhokamasida isbot qilish predmeti va doirasini tadqiq qilish;

- MDH davlatlari va ayrim Yevropa mamlakatlari jinoyat-protsessual huquqida preyuditsiya masalalarini qiyosiy-huquqiy tadqiq etish.

O'zbekistonda jinoyat protsessida preyuditsiya institutini qo'llash bilan bog'liq milliy qonunchilikni takomillashtirish istiqbollari- ni aniqlash hamda ushbu jinoyat-protsessual institutning huquqiy asoslarini ishlab chiqish yuzasidan ilmiy taklif va tavsiyalar quyidagilardan iborat:

- 1) jinoyat-protsessual huquqida sud hujjatlarining ahamiyatini oshiruvchi va jinoyat ishlarini ko'rib chiqishda asoslanganlik, tezkorlik va bir xillikni ta'minlash vositasi sifatida preyuditsiya institutining tushunchasi va ahamiyati ochib beriladi;

- 2) jinoyat protsessida preyuditsiya institutini joriy etish istiqbollari bilan bog'liq nazariy

va amaliy muammolarni hal etish borasida aniq takliflar ishlab chiqiladi;

3) jinoyat ishlari bo'yicha sud ishi yurituvida preyuditsiya instituti chegaralari va doirasi hamda uni qo'llash bilan bog'liq protsessual tartib-taomillarni ishlab chiqish bo'yicha takliflar kiritiladi va b.q. [3, 53-b.].

Huquq ilmida isbot qilishning turli xil vositalari mavjud. Bularga dalillar, preyuditsiyalar, prezumpsiyalar va boshqalarni keltirish mumkin. Jinoyat ishlari bo'yicha isbot qilish haqida gap ketganda, ko'pincha isbot qilish vositasi sifatida dalillar haqida so'z yuritiladi. Isbotlashning boshqa vositalari ikkinchi darajalidek ahamiyat kasb etadi. Vaholanki, sudtergov amaliyotida isbotlash uchun ahamiyatli bo'lgan vositalardan biri preyuditsiya hisoblanadi va isbot qilishda o'ziga xos muhim ahamiyat kasb etadi [4, 142-b.].

Preyuditsiya o'zida ikki elementni qamrab oladi: 1) praecedo – oldinga qarab harakatlantirish, yetakchilik qilish; 2) praeiudico – oldindan dastlabki muhokama qilish, bunda “raye” qo'shimcha “oldindan” ma'nosini, “judicium” esa qonun yuridik kuchiga ega bo'lgan huquqiy qaror ma'nosini anglatadi [5, 16-b.]. Darhaqiqat, preyuditsiya sud, prokuror, tergovchi, surishtiruvchi tomonidan fuqaroviy, iqtisodiy yoki ma'muriy sud ish yurituv doirasida sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi yoki boshqa qarori bilan aniqlangan holatlar, basharti, ular qonun bilan belgilangan tartibda jinoyat ishini yuritish davomida to'plangan, tekshirilgan va baholangan dalillar bilan rad etilmasa, qo'shimcha tekshiruvlarsiz tan olinishida ifodalanadigan isbotlash jarayonining elementi hisoblanadi.

Fanda preyuditsiya atamasi ishlatilganda, ko'p hollarda oldingi sud qarori haqida so'z borayotganligi ko'pchilik tomonidan e'tirof etiladi.

Shuningdek, V.V. Vasin ta'kidlaganidek, preyuditsiya umumyurisdiksiya sudning jinoyat-protsessual bilish tizimi elementi bo'lib, jinoyat ishini to'g'ri hal qilish uchun muhim amaliy ahamiyat kasb etadi [6, 78-b.].

Bu borada O.E. Yatsishinaning “preyuditsiya sud qarorlarining huquqiy va ijtimoiy ahamiyati, ularning muqarrarliligi va nufuzini yana bir karra tasdiqlaydi” [7, 91-b.], degan mulohazasiga qo'shilish o'rinlidir.

Ayni damda bu preyuditsiyaning faqatgina bir tarafi bo'lib, uning ikkinchi tarafi asoslangan dalillar bilan mustahkamlangan va preyuditsial aniqlangan holatlarning boshqa ish bo'yicha isbotlanishi lozim bo'lgan holatlarni aniqlashda foydalaniladi.

Ayblanuvchi (sudlanuvchi, mahkum), jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar bir jinoyat ishi bo'yicha muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'lgani holda, preyuditsial holatlar ta'sirida boshqa ish bo'yicha ham xuddi shunday huquq va majburiyatlar ko'lamiga ega bo'ladi.

Preyuditsial aniqlangan huquqiy munosabatlar isbotlash ishtirokchilarini shaxsni takroran jabrlanuvchi yoki fuqaroviy da'vogar deb tan olishdan, shaxsni fuqaroviy javobgar sifatida takroran jalb etishdan ozod qiladi. Ko'rsatilgan jinoyat protsessi vakillariga ularning huquq va majburiyatlari takroran tushuntirilmaydi.

Jinoyat ishlarini yuritishda preyuditsiya qoidalarining mavjudligi quyidagi afzalliklarni keltirib chiqaradi:

1) jinoyat ishini yuritishga mas'ul bo'lgan davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatidagi ziddiyatlarni bartaraf etadi;

2) jinoyat ishini vakolatli shaxs tomonidan yanada malakali ko'rib chiqib, hal etadi;

3) jinoyat ishini yuritishda ko'plab xarajat va kuch talab etadigan preyuditsial vaziyatlarini oson hal etish imkonini beradi;

4) yuridik kuchga ega bo'lgan oldingi sud qarorlari izsiz yo'qolishining oldini oladi, natijada holatlar yuzasidan maqbul yechim topilishiga olib keladi [8, 117-b.].

#### **Tadqiqot natijalari tahlili**

V.V. Vasin esa sudning jinoyat-protsessual bilish faoliyatidagi preyuditsiyaning sud tomonidan oldingi jinoyat ishlarini ko'rib chiqish davomida olingan va qonuniy kuchga kirgan

sud hukmida ifodalangan va sud tomonidan hukm chiqarishda foydalanilgan boshqa jinoyat ishi bo'yicha bilish predmetiga oid har qanday holatlar to'g'risidagi "tayyor bilimlar" sifatida baholaydi [9, 124-b.].

T.G. Morshakova va S.V. Golubinskayalar ta'biri bilan aytganda, "preyuditsiya bir sud tomonidan aniqlangan hamda boshqa sudlar tomonidan takroran aniqlanishi mumkin bo'lmagan va ular tomonidan aniqlangan, yakunlangan sifatida baholanishi lozim bo'lgan holatlardir" [10, 133-b.].

Biroq mazkur mualliflarning fikrlariga biroz e'tiroz mavjud. Sababi oldingi sud qarorlari bilan aniqlangan barcha holatlarni tekshirishsiz qabul qilish mumkin bo'lmaydi. Ayrim vaqtlarda ularni tekshirish ish holatidan kelib chiqib majburiy hisoblanadi.

O.V. Levchenko esa preyuditsiyani "qonuniy kuchga kirgan sud hukmi (qarori) bir sud (sudya) uchun majburiylik va shu tufayli ayni bir ishning to'liq yoki qisman takroran ko'rib chiqilishi istisno etilishi to'g'risidagi yuridik qoida", deb hisoblaydi. Ushbu holatda muallif qaysidir jihatdan haq [11, 237-b.].

L.S. Zarjiskaya preyuditsiyani muqaddam qabul qilingan sud qarori, maqbul va ishonchli dalillar bilan aniqlangan holatlarni tan olish sifatida ta'riflaydi [12, 271-b.]. Muallif protsessual preyuditsiyaning ko'p qirraligini e'tirof etgan holda, uning quyidagi xususiyatlarini ko'rsatadi: majburiylik, unga ko'ra, protsessual preyuditsiya aniqlangan protsessual haqiqatning oliyligi sifatida tushuniladi; texnologiyaviyligi – davlat hokimiyatining nizoli vaziyatlarni hal qilish doirasidagi davlat hokimiyati imkoniyatlarini realizatsiya qilish imkoniyatini beruvchi vosita va usullar majmuyi; kommunikativlik – preyuditsiya barcha huquqni qo'llovchilar uchun yagona mazmunga ega kategoriya hisoblanadi [13, 290-b.].

S.V. Esaulov esa jinoyat sud ishi yurituvidagi preyuditsiyaga sudning qonuniy kuchga kirgan sud hukmi bilan aniqlangan holatlarni isbotlash majburiyatidan ozod etuvchi qoida bo'lib, basharti, ushbu holatlar jinoyat sud

ish yurituvini amalga oshirayotgan organ va mansabdor shaxslarda shubha tug'dirmasa, ularni jinoyat ishi yurituvini jarayonida tan olishga majbur qiladi, deb ta'rif beradi [14, 301-b.].

Yu.Ye. Saleeva protsessual ma'noda preyuditsiya jinoyat sud ishi yurituvini yuritayotgan ishtirokchilarining preyuditsial holatlarni e'tiborga olish va ularga to'plangan dalillar tizimiga asoslanib, o'z ichki ishonchi asosida baho berishi to'g'risidagi majburiy qoida sifatida talqin etilishi lozimligini aytib o'tadi [15, 311-b.]. Muallifning fikricha, preyuditsiya preyuditsial aniqlangan holatlarni komil ishonch bilan qabul qilishni talab qilmaydi, balki ularni majburiy baholash to'g'risidagi talabni ifodalaydi.

A.R. Belkin preyuditsiyani "bir sud qarorining boshqasi uchun majburiylik tariqasidagi hukmning haqqoniylik prezumpsiyasini bosqichma-bosqich qo'llashning natijasidir", deb ta'riflaydi [16, 99-b.].

N.A. Tuzov sud hujjatlarining umumiy preyuditsiyasi tushunchasini qo'llagan holda, uni barcha organlar, tashkilotlar va shaxslar (subyektlar) tomonidan muayyan ishlar bo'yicha qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarining (birinchi navbatda, ularning qaror qismlari) ushbu hujjatlarda ko'rsatilgan holatlar bo'yicha kelgusida qo'llanilganda majburiylik sifatida e'tirof etadi [17, 284-b.].

Preyuditsiya to'g'risidagi qoidani amalga tatbiq etish: 1) hamma vaqt surishtiruvchi, tergovchi va sud yurituvida bo'lgan ish bilan bog'liq qonuniy kuchga kirgan sud qarori mavjudligini hisobga olishni talab qiladi. Preyuditsiya to'g'risidagi holat preyuditsial hujjatni hisobga olmagan holda, ish bo'yicha yurituvni amalga oshirish imkonini bermaydi; 2) sud xatosini aniqlash va pirovardida ikkita o'zaro bog'liq ishlar bo'yicha haqiqatni aniqlash imkonini beradi; 3) surishtiruvchi, tergovchi va sudni ish uchun ahamiyatli holatlarni takroran aniqlash zaruriyatidan ozod etadi, ular qonuniy kuchga kirgan sud hukmiga havola qilish bilan cheklanishlari mumkin [18, 109-b.].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-iyuldagi “Sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish va sud hokimiyati organlariga ishonchni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5482-sonli Farmonidan kelib chiqib, aytishimiz mumkinki, preyuditsial holatlar qonuniy kuchga kirgan sud hukmida ifodalanishi hamda qilmishni jinoyat-protsessual va jinoyat-huquqiy malakalashda qo‘shimcha tekshirishlarsiz xulosa qilish orqali tegishli jinoyat-protsessual qaror qabul qilishda ishlatilishi lozim.

Jinoyat-protsessual faoliyatda preyuditsiyaning ahamiyati shundaki, sud ilgari sud tekshiruv predmeti bo‘lgan va ma‘lum holatlar yordamida unga ma‘lum bo‘lmagan holatlar to‘g‘risida bilimni qo‘lga kiritadi hamda qonuniy kuchga kirgan sud hukmi orqali boshqa hodisalar aniqlanishiga erishadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4966-sonli Farmoni mazmuniga ko‘ra aytadigan bo‘lsak, jinoyat protsessida preyuditsiyaning o‘rni va ahamiyati borasida vujudga kelgan ixtiloflar, avvalambor, uning dalil sifatidagi maqomi bilan belgilanadi. Ta‘kidlash lozimki, mantiqan olganda, preyuditsial aniqlangan holatlar va ma‘lumotlar allaqachon aniqlangan bilimlar hisoblanadi. Ushbu bilimlar haqqoniy va isbotlangan dalillarga asoslanadi. Kelajakda shu bilimlardan dalil va boshqa jinoyat ishini ko‘rib chiqishda tekshirib bo‘lingan va tayyor bilimlar sifatida foydalanilishi mumkin. Shu tariqa preyuditsial aniqlangan holatlar yoki ma‘lumotlar o‘z tabiati va ichki mazmuniga ko‘ra, yangi tayyor bilimlar hisoblanadi va ayni shu bois sud tomonidan preyuditsial holatlar sifatida qo‘llanilishi mumkin. Preyuditsial aniqlangan holatlar mohiyat e‘tibori bilan jinoyat-protsessual bilish faoliyatida sud tomonidan foydalanish uchun tayyorligi va yaroqliligida namoyon bo‘ladi hamda O‘zbekiston Respub-

likasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabrdagi “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4850-sonli Farmoni mazmuni bilan izohlangan deb aytish mumkin.

Jinoyat protsessida preyuditsiya deganda, qonuniy kuchga kirgan sud hujjatida (hukm, hal qiluv qarori, ajrim, qaror va b.q.) aniqlangan holatlar, basharti, ular maqbullik, ishonchlilik va protsessual qonunchilik talablariga muvofiq rasmiylashtirilganlik kabi mezonlarga javob bersa, jinoyat ishi bo‘yicha ish yurituv jarayonida qo‘shimcha tekshiruv va baholashlarsiz tan olish va qo‘llashni ta‘minlovchi, shuningdek, ushbu holatlarni takroran isbotlashdan ozod etuvchi yuridik qoida tushuniladi, degan mualliflik ta‘rifi berildi [19, 136-b.].

Jinoyat protsessida preyuditsiyaning jinoyat sud ish yurituvda protsessual qarorni qabul qiluvchi subyektgacha bog‘liq holda uch turini ajratishimiz mumkin: 1) surishtiruvchi, tergovchi tomonidan qo‘llaniladigan preyuditsiya; 2) prokuror tomonidan qo‘llaniladigan preyuditsiya; 3) sud tomonidan qo‘llaniladigan preyuditsiya [20, 210-b.].

Ta‘kidlash joizki, shuning uchun u tegishli talablarga javob berishi lozim: obyektiv bo‘lishi (faqatgina tekshirilgan va aniqlangan dalillarga asoslangan bo‘lishi), aniq belgilangan (shubhalar asosida turli tushunchani bermasligi lozim), yuridik asoslangan (tegishli tartibda jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligi talablariga tayangan bo‘lishi), shuningdek, stilistik va grammatik talablarga to‘liq javob berishi kerak [21, 202-b.].

### **Xulosalar**

Ayrim manbalarda nazariy bildirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda, preyuditsiyaning quyidagicha tavsiflash bo‘yicha xulosa chiqariladi: 1) huquqni qo‘llash akti; 2) sud tomonidan aniqlangan holat; 3) bir sud qarorining boshqasi uchun majburiylik tarzdagi hukmning haqqoniylik prezump-

siyasini bosqichma-bosqich qo'llash natijasi; 4) isbotlash bo'yicha intellektual-irodaviy faoliyat; 5) alohida huquqiy hodisalar xususiyati; 6) yuridik texnika usuli (isbotlash qoidasi); 7) preyuditsial aniqlangan faktlar ustida nizolashish taqiqi; 8) isbotlashdan ozod etish asosi (qoidasi); 9) isbotlashda qonuniy kuchga kirgan sud hukmlaridan foydalanishning maxsus qoidalari belgilovchi yuridik qoida.

Muxtasar qilib aytganda, jinoyat protsessida preyuditsiya deganda, qonuniy kuchga kirgan sud hujjatida (hukm, hal qiluv qarori, ajrim, qaror va b.q.) aniqlangan holatlar, basharti, ular maqbullik, ishonchlilik va protsessual qonunchilik talablariga muvofiq rasmiylashtirilganlik kabi mezonlarga javob bersa, jinoyat ishi bo'yicha ish yurituv jarayonida qo'shimcha tekshiruv va baholashsiz tan olish va qo'llashni ta'minlovchi, shuningdek, ushbu holatlarni takroran isbotlashdan ozod etuvchi yuridik qoida tushuniladi [22, 49-b.].

Jinoyat protsessida preyuditsiyaning jinoyat sud ishi yurituvida protsessual qarorni qabul qiluvchi subyektaga bog'liq holda uch turini ajratishimiz mumkin: 1) surishtiruvchi, tergovchi tomonidan qo'llaniladigan preyuditsiya; 2) prokuror tomonidan qo'llaniladigan preyuditsiya; 3) sud tomonidan qo'llaniladigan preyuditsiya.

Huquq tizimi doirasida harakat qilish sohasiga ko'ra, preyuditsiya umumhuquqiy, tarmoqlararo va tarmoq (ichki tarmoq) preyuditsiyasiga bo'linadi. Umumhuquqiy preyuditsiyaning o'ziga xos xususiyati uning barcha huquq sohalari doirasida amal qilishi hisoblanadi [23, 178-b.].

Preyuditsiyaga xos bo'lgan quyidagi muhim xususiyatlar aniqlandi: 1) preyuditsiya – bu huquqni qo'llash faoliyatida qo'llaniladigan isbotlash predmeti va yo'nalishi, mazmunini ifodalaydigan yuridik texnika usuli, isbotlash qoidasi bo'lib, yuridik ishlarni ko'rib chiqish va ular bo'yicha qaror qabul qilish-

da qo'llaniladi; 2) preyuditsiyani amalga oshirish zamirida boshqa huquqiy ish bo'yicha isbotlangan holatlarning ishonchliligi yotadi; 3) preyuditsiya barcha huquqni qo'llovchi organlar uchun majburiydir; 4) preyuditsiya qonuniy kuchga kirgan sud qarori bilan bog'liq [24, 99-b.]. Preyuditsiyaning obyektiv tomoni sud faoliyati bilan belgilanadi va unga rioya etilishi oxir-oqibatda qaror qabul qilish tarzidagi huquqiy natijaga sabab bo'ladi; 5) preyuditsiya faqatgina sud qarorini qabul qilish asosiga kiruvchi yuridik faktlarga nisbatangina tatbiq etiladi [25, 153-b.]. Preyuditsiya isbotlashning odatdagi tartibini o'zgartirishi va ish holatlari sud tomonidan hal qilinganligi bois ularni takroran aniqlash va tekshirish majburiyatidan ozod etishi umum tan olingan.

Sudlar tizimining amaldagi tuzilmasi va shtat birligi xizmat vazifalarini oqilona taqsimlash imkonini bermayapti, bu esa ularni zamon talablarini inobatga olgan holda takomillashtirish va maqbullashtirishni talab etadi [26, 214-b.].

Hozirgi kunda olib borilayotgan islohotlar doirasida quyidagi vazifalar hal etilmoqda, ya'ni fuqarolar huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarining ta'sirchan va ishonchli muhofaza qilinishini ta'minlash, jinoyat-protsessual qonunchiligi normalarini tizimlashtirish va uyg'unlashtirish, jinoyat protsessida shaxsning huquq va erkinliklari kafolatlarini ishonchli ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish, jinoyat protsessining yangi shakl va tartib-taomillarini kiritishdan iborat bo'lgan chora-tadbirlar amalga oshirilyapti.

Yuqorida hal etilishi lozim bo'lgan vazifalar doirasida dalillar va ularning maqbulligi hamda ishonchliligi qat'iy o'rin egallaydi. Buning uchun dalillarning preyuditsial ahamiyatini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Umid qilamizki, qonunchiligimizda bunday yangilik o'rin egallaydi.

## REFERENCES

1. Zimenko Y. Znachenije preyuditsii i pretsedenta v prave [The meaning of prejudice and precedent in law]. *Zakon i jizn – Law and life*, 2013, no. 8/2, p. 183.
2. Levchenko O.V. Preyuditsiya v ugovovno-protsessualnom prave [Prejudice in criminal procedure law]. *Vestnik OGU – Bulletin of OSU*, 2010, no. 3 (109), p. 58.
3. Bruskov P.V. Preyuditsiya v ugovovnom, arbitrajnom i grajdanskom protsessax [Prejudice in criminal, arbitration and civil proceedings]. Available at: [www.pravoektb.ru/stati/preyuditsiya-v-ugovovnom-arbitrazhnom-i-grazhdanskom-protsessakh/](http://www.pravoektb.ru/stati/preyuditsiya-v-ugovovnom-arbitrazhnom-i-grazhdanskom-protsessakh/) (accessed 28.02.2013).
4. Smirnov I. Preyuditsiya kak sredstvo yuridicheskoy texniki [Prejudice as a means of legal technique]. Available at: [www.izvestia.vologda-uni.ru/](http://www.izvestia.vologda-uni.ru/).
5. Vasin V.V. Ugolovno-protsessualnoye poznanije sudom pervoy instansii obstoyatelstv ugolovnogo dela [Criminal procedural knowledge by the court of first instance of the circumstances of a criminal case]. Tomsk, Law Institute of Tomsk State University, 2006, p. 5.
6. Yatsishina O.E. Vnutrenneye ubejdeniye kak osnovaniye svobody otsenki dokazatelstv v rossiyskom ugolovnom protsesse [Inner conviction as a basis for freedom of evaluation of evidence in the Russian criminal process]. Chelyabinsk, Poligraf-Master, 2006, p. 21.
7. Zarjitskaya L.S. Preyuditsii v sisteme ugolovno-protsessualnogo dokazyvaniya: prezentatsiya rezultatov nauchno-prakticheskogo issledovaniya [Prejudice in the system of criminal procedural proof: presentation of the results of scientific and practical research]. *Mirovoy sudya – World judge*, 2013, no. 1, p. 26.
8. Levchenko O.V. Sistema sredstv dokazyvaniya po ugolovnym delam [System of evidence in criminal cases]. Astrakhan, Astrakhan State Technical University, 2003, p. 164.
9. Zvyaginseva L.M. Dokazyvaniye v sudebnom praktike po grajdanskim delam [Evidence in jurisprudence in civil cases]. Moscow, 2000, p. 15.
10. Chashina I.V. Preyuditsii v ugolovnom protsesse: ponyatiye i znachenije [Prejudice in criminal proceedings: concept and meaning]. *Nauchno-prakticheskij jurnal Akademii Generalnoy prokuratury Rossiyskoy Federatsii – Scientific and practical journal of the Academy of the Prosecutor General's Office of the Russian Federation*, 2009, no. 5 (13), p. 67.
11. Zarjitskaya L.S. Mesto i rol preyuditsiy v ugolovno-protsessualnom dokazyvanii [Place and role of prejudice in criminal procedural proof]. Moscow, RUDN, 2013, p. 9.
12. Pulatov B.H. Teoreticheskiye osnovi sovershenstvovaniya zakonodatelnogo regulirovaniya i praktiki uchastiya prokurora pri rassmotrenii ugolovnix del v sudax [Theoretical Foundations for Improving Legislative Regulation and the Practice of Participation of the Prosecutor in the Consideration of Criminal Cases in Courts]. Tashkent, Fan, 2002, p. 156.
13. Pulatov B.X. Davlat ayblovchisining sudda dalillarni tekshirishda ishtiroki. Davlat ayblovchisi uchun ilmiy-uslubiy qo'llanma [Participation of the public prosecutor in the examination of the evidence in court. Scientific and methodological manual for public prosecutors]. Tashkent, 2004, p. 78.
14. Vandyshev V.V. Ugolovniy protsess. Obshaya i Osobennaya chasty [Criminal process. General and Special parts: a textbook for law schools and faculties]. Mejrionalniy institut ekonomiki i prava – Interregional Institute of Economics and Law. Moscow, Kontrakt, 2010, p. 720.
15. Uralov S.S. Jinoyat-protsessual qonunchiligida preyuditsiya instituti [Institute of Prejudice in Criminal Procedure Law]. Tashkent, Lesson Press, 2021, p. 106.
16. Uralov S.S. Sudgacha bo'lgan bosqichda va sudda taraflarning o'zaro tortishuvi [Pre-trial and trial litigation]. Tashkent, Tashkent State University of Law, 2021, p. 102.
17. Uralov S.S., Aurora M. Prejudice in evidence and proof. *Fundamentalnie osnovi nauki – Fundamental foundations of science*, 2021, pp. 22-26.
18. Uralov S. Required perspectives for investigation of crimes in the field of information technology and overcoming crime. *Review of law sciences*, 2020, no. 4. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/required-perspectives-for-investigation-of-crimes-in-the-field-of-information-technology-and-overcoming-crime/> (accessed 21.12.2021).

19. Morshakova T.G. Razgranicheniye kompetensii mejdu Konstitutsionnim Sudom i drugimi sudami RF: Sudebniy konstitutsionniy kontrol v Rossii [Delimitation of competence between the Constitutional Court and other courts of the Russian Federation: Judicial constitutional control in Russia]. *Vestnik Konstitutsionnogo suda RF – Bulletin of the Constitutional Court of the Russian Federation*, 1996, no. 6, pp. 20-21.

20. Esaulov S.V. Realizatsiya prinsipa prezumpcii nevinovnosti v dokazyvaniy na dosudebnykh stadiyax ugolovnogo sudoproizvodstva [Implementation of the principle of the presumption of innocence in proving at the pre-trial stages of criminal proceedings]. Moscow, Moscow University of the Ministry of Internal Affairs of the Russian Federation, 2013, p. 11.

21. Saleeva Yu.Ye. Preyuditsiya v sovremennom ugolovnom protsesse [Prejudice in modern criminal procedure]. Nizhny Novgorod, 2014, p. 11.

22. Belkin L.R. Teoriya dokazivaniya: nauchno-metodicheskoye posobiye [Evidence theory: scientific and methodological manual]. Moscow, 1999, p. 295.

23. Tuzov N.A. Motivirovaniye i preyuditsiya sudebnix aktov [Motivation and prejudice of judicial acts]. Moscow, RAP, 2006, p. 46.

24. Chashina I.V. Preyuditsiya v ugolovnom protsesse Rossii i zarubejnih stran (sravnitelno-pravovoye issledovaniye) [Prejudice in the criminal process of Russia and foreign countries (comparative legal research)]. Moscow, 2011, p. 23.

25. Skoblikov P.A. Mejostraslevaya i vnutriostaslevaya preyuditsiya prigovorov i svyazannix s nimi sudebnix aktov [Intersectoral and intrasectoral prejudice of sentences and related judicial acts]. *Zakon – Law*, 2013, no. 8, pp. 59-60.

26. Konstitutsionno-pravovie problemi primeneniya prinsipa preyuditsii v ugolovnom protsesse. Obobshhenie pravoprimenitelnoy praktiki [Constitutional and legal problems of applying the principle of prejudice in criminal proceedings. Generalization of law enforcement practice]. Moscow, Granitsa, 2013, p. 24.